

## “QISASI RABG‘UZIY” DAGI SHE’RIY JANRLAR TARKIBI

Burxanov Zavqiddin Sherali o‘g‘li

Jizzax davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi

[zavqiddinburxanov914@gmail.com](mailto:zavqiddinburxanov914@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada “Qisasi Rabg‘uziy”da arab va turkiy (o‘zbek) tilida she’rlar bitilgan. Asarda g‘azal, ruboiy, qit’a, qasida kabi janrlarda 550 dan ortiq misra she’r mavjud. Bu she’rlar Rabg‘uziyning mohir shoir ekanligidan darak beradi. Shu bilan bu she’rlar yuksak mahorat bilan bitilganki, ular asar muallifining aruz vaznidan yaxshi xabardorligini ko‘rsatadi. Arabcha she’rlarning turkiycha tarjimasi muallif tomonidan amalgalashirilgan. Asarda arabcha she’rlarning uchrashi tabiiy hol. Chunki, asar Qur’oini Karim va Hadisi shariflar tasirida yuzaga kelgan. Bu she’rlar asar mazmunini to‘ldiradi, g‘oyaviy maqsadni yuzaga chiqarishdagi o‘ziga xos badiiy vosita bo‘lib xizmat qiladi. Asar badiiyati ham o‘ziga xos. She’riy parchalardan tashqari juda ko‘p o‘rinlarda voqealar bayoni, holatlar tasvirida tashbeh, tanosub, tazod, tajnis takrir, jonlantirish kabi tasviriy vositalardan unumli foydalangan.*

**Kalit so‘zlar:** “Qisasi Rabg‘uziy”, she’riy janrlar, Qur’oni Karim, Hadisi sharif, muxallas, murabba’, fard.

## СОСТАВ ЖАНРОВ ПОЭЗИИ В “КИСАСИ РАБГУЗИ”

### АННОТАЦИЯ

*В этой статье в “Кисаси Рабгузи” написаны стихи на арабском и тюркском (узбекском) языках. В произведении более 550 стихотворений в таких жанрах, как газель, рубаи, континент, Касыда. Эти стихи свидетельствуют о том, что Рабгузи был опытным поэтом. При этом эти стихи написаны с высоким мастерством, что свидетельствует о хорошем осознании автором произведения веса аруза. Турецкий перевод арабских стихов выполнил автор. Вполне естественно, что в произведении встречаются арабские стихи. Потому что Коран и хадисы произведения возникли под влиянием Шарифов. Эти стихи дополняют содержание произведения, служат своеобразным художественным*

инструментом в выведении идейной цели на поверхность. Искусство работы тоже уникально. Помимо поэтических отрывков, во многих местах повествование о событиях плодотворно использовало такие изобразительные средства, как аллегория, таносуб, тазод, таджнис такрир, оживление в изображении обстоятельств.

**Ключевые слова:** "Кисаси Рабгузи", поэтические жанры, Коран, хадис Шариф, мухаллас, мурабба', фард.

## COMPOSITION OF POETIC GENRES IN "QISA RABGUZIY"

### ANNOTATION

*This article contains poems in Arabic and Turkic (Uzbek) in "Qisasi Rabguziy". The work contains more than 550 stanzas of poetry in genres such as Ghazal, ruboi, continent, qasida. These poems testify to the fact that Rabghuzi was a skillful poet. With this, these poems are finished with high skill, which indicate that the author of the work is well aware of the weight of aruz. The Turkish translation of the Arabic poems was done by the author. It is natural for Arabic poems to meet in the work. Because the Qur'an of the work was influenced by Karim and Hadith by the Sharifs. These poems complement the content of the work, serve as a kind of artistic tool in bringing the ideological goal to the surface. The art of the work is also unique. In many places, in addition to poetic passages, the narrative of events made the most effective use of such pictorial means as thirst, tanosub, tazad, tajnis takrir, revitalization in the image of circumstances.*

**Keywords:** "Qisasi Rabguziy", poetic genres, Korani Karim, Hadisi sharif, muxallas, murabba', fard.

"Qisasi Rabg'uziy"da arab va turkiy (o'zbek) tilida she'rlar bitilgan. Asarda g'azal, ruboiy, qit'a, qasida kabi janrlarda 550 dan ortiq misra she'r mavjud. Bu she'rlar Rabg'uziyning mohir shoir ekanligidan darak beradi. Shu bilan bu she'rlar yuksak mahorat bilan bitilganki, ular asar muallifining aruz vaznidan yaxshi

xabardorligini ko'rsatadi. Arabcha she'rlarning turkiyicha tarjimasi muallif tomonidan amalga oshirilgan. Bu narsa muallifning har ikki tilni mukammal bilgani va bu tillarda baravar ijod qila olganini ko'rsatadi. Asarda turli hajmda 59 ta she'r bo'lib, ularning qirqtasi turkiyicha (o'zbekcha), o'n to'qqiztasi arab tilida. She'rlar asar mazmunini to'ldiradi, muallifning g'oyaviy-badiiy maqsadini yuzaga chiqarishda o'ziga xos badiiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Ular g'azal, musallas, murabba', fard singari janrlarning ilk ibridoiy namunalari bo'lgani uchun ham mazkur shakllardagi she'rlarning janr talablariga to'la-to'kis javob bera olmaydi.

Shunday bo'lsa-da, bu she'rlar Rabg'uziy dahosining nafaqat mohir nosir, ayni paytda iste'dodli shoir bo'lganini ham isbotlaydi.

Asarda arabcha she'rlarning uchrashi tabiiy hol. Chunki, asar Qur'oini Karim va Hadisi shariflar tasirida yuzaga kelgan. Bu she'rlar asar mazmunini to'ldiradi, g'oyaviy maqsadni yuzaga chiqarishdagi o'ziga xos badiiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Asar badiiyati ham o'ziga xos. She'riy parchalardan tashqari juda ko'p o'rirlarda voqealar bayoni, holatlar tasvirida tashbeh, tanosub, tazod, tajnis takrir, jonlantirish kabi tasviriy vositalardan unumli foydalangan. Xususan, sa'j (nasrdagi ichki qofiya) adibning sevimli badiiy vositasi ekanligi ko'zga tashlanadi. Muallif sa'jdan asosan ta'rif va tavsif o'rirlarida foydalanadi. Masalan, Idris alayhissalom ta'rifi: "...payg'ambar alayhissalom ul umri ukush, diyori ko'shish, Azroilg'a qotishg'an, rizvon birla yanashg'an, dunyodin qushdek uchg'an, tamug'g'a kirib chiqg'an, Sirotdin yashindek kechg'an, uchmoh qabug'in ochg'an, o'zi aziz, o'rni adiz arig' zotlig', Axnuh otlig' Idris yalovoch"<sup>6</sup>. Asar tarkibidagi nazmiy parchalarning ahamiyatli jihat shundaki, bu she'riy parchalar janrlarning ilk ko'rinishlarini tashkil qilgan. Asarda g'azal, musammat, g'azal-marsiya janrlarining ilk ko'rinishlari uchraydi. Bahor vasfiga bag'ishlangan birinchi turkiy g'azal alohida ahamiyatga ega. G'azal shunday misralar bilan boshlanadi:

<sup>6</sup> Nosiruddin Rabg'uziy. Qisasi Rabg'uziy. 1-kitob,-T.: Yozuvchi, 1990.-B.156

Kun hamalga kirdi ersa, keldi olam navro‘zi, Kechdi bahman zamharir qish, qolmadi qori, buzi.

So‘ng olamning go‘zal bir manzara kasb etgani, atrofning go‘zalligi tavsiflanadi:

Kun kelu ming ko‘rki ortib tirilur o‘lmish jahon, Tong badizlab naqshi birla bezanur bu yer yuzi.

Tasvirda jonlantirish, sifatlash va o‘xshatishlar asosiy o‘rin tutadi. Muhimi, ularda Rabg‘uziyning tasavvur kuchi va badiiy mahorati ochiq ko‘rinadi:

*...O‘rlasa bulutlari gulchirar bog‘-u bo‘ston,  
Tol yig‘ochlar yeng solishur o‘ynayurtek qo‘y-qo‘zi.  
...Lola sag‘roqin icharda sayrar usrub sanduvach,  
Turnalar un tortib o‘tarda sakrashur baqlan, qo‘zi.  
Ko‘kda o‘ynar, qo‘l solishur qug‘u, g‘oz, qil, qarlug‘och,  
Yerda yugurub juft olishur os, tiyin, kish, qunduzi.  
Tol yig‘ochlar minbarinda to‘ti qush majlis tutar,  
Qumri, bulbul muqli bo‘lub un tuzar tun-kunduzi.  
...Huri ayn ujmoh ichinda yeng solib tahsin qilur,  
Yoz uza mundog‘ g‘azallar aymishdi Nosir Rabg‘uziy.*

O‘zbek adabiyotidagi bu ilk g‘azalda Rabg‘uziy janrning barcha shakily badiiy talablariga mukammal darajada rioya etgan. She‘rning matla’sidan maqta’sigacha navro‘z ta’rif-tavsifi aks ettiriladi. G‘azalning qofiyalanishi bugungi qofiyalanish tizimiga to‘liq javob beradi. Ya’ni , a-a, b-a, c-a, d-a tarzda. Navro‘zi, buzi, yuzi, yozi, tuzi, qo‘y-qo‘zi, juzi, qo‘zi, qunduzi, yulduzi, Rabg‘uziy so‘zlaridan tashkil topgan qofiyalar tizimi turkiy til tarovatini ko‘rsatuvchi omillardan biri bo‘lgan. Maqta’da ilk bor taxallus ishlatilgan. Vazn ham o‘ynoqi bo‘lib, g‘azal uchun turkiy adabiyotda keyinchalik eng ko‘p qo‘llangan vazn- ramal tanlab olingan.

Kun ha-mal-ga\kir-di er-sa,\kel-di o-lam \ nav-ro‘-zi, - V - - \ - v - - \ - v - - \ - v - - Fo-i-lo-tun fo-i-lo-tun fo-i-lun Kech-di bah-man \ zam-ha-rir qish\ qol-madi qo-\ri, bu-zi - V - - \ - v - - \ - v - - \ - v - - Fo-i-lo-tun fo-i-lo-tun fo-i-lun

Ko‘rinib turganidek, ramal bahrining rukni foilotun ohanglariga tayanadi. Bir bayt (ikki misra)dab u rukn sakkiz marta qo‘llangani uchun musamman nomini oladi. “Musamman” arabcha so‘z bo‘lib , sakkiz degan ma’noni bildiradi. Oxirgi rukn avvalgilaridan qisqaroq, unda bir hijo kam. Ushbu shakl mahzuf deyiladi. Vaznning to‘liq nomi ramali musammani mahzufdir. G‘azalning barcha baytlari o‘zaro mantiqiy ip (navro‘z) bilan bog‘langan. Ana shu ichki bog‘liqlik g‘azal yaxlitligini ta’minlagan. Dastlabki bayt umumiy axborot berishga qaratilgan. Qishning o‘rniga bahorning kelishi ko‘rsatilgan. Bunda muallif munosabatining ochiq ifodalanishi e’tiborni tortadi. Bahorga nisbatan “olam navro‘zi” ifodasi qo‘llansa, qishga nisbatan “bahman” (ayoz, qahraton, izg‘irin) “zamharir” (qirovli,qahraton,qattiqsovug) sifatlashlari tanlangan. Keyingi baytlar bahorning xususiy jihatlarini tasvirlashni ko‘zda tutadi. Dastlab dunyoning yangidan chiroy ochgani (“tirilur bu yer yuzi”) qalamga olinadi. Osmon va yerdagi o‘zgarishlarni aks ettirish navbatdagi bayt qamroviga kiradi. Unda bulut va daraxtlarning o‘ziga xos manzarasi ko‘rsatiladi. *Lola, bulbul, turna, qo‘zi* so‘zlari bahorning turli belgilarni ifodalash vositasi bo‘lgan. “Yerosmon” zidligi asosida bahorning o‘ziga xos tasvirini berish keyingi baytda ham davom etadi. Bahor osmonida qushlarning ko‘payishi qug‘u (oqqush), g‘oz, qil(qilquyruq), qarlug‘och(qaldirg‘och) vositasida ko‘rsatilsa, yerdagi jonivorlar harakatining jonlanishi os (oq suvsar), tiyin (olmaxon), kish (qunduzning bir turi), qunduz singari hayvonlar timsollari vositasida tasvirlangan. Qadimgi turkiy tilda “yig‘och”, “og‘och” so‘zlari, asosan, “daraxt” tushunchasini ifodalagan. Navbatdagi baytda tilga olingan “tol yog‘och minbarinda” (tol daraxtning shoxlarida) ifodasi xuddi shu ma’noni yuzaga chiqaradi. Bu baytda bir qator qushlar (to‘ti, qumri, bulbul)ning xonishi – sayrashi orqali bahor faslining tarovati yana bir bor ta’sirli yo‘sinda tasvirlangan.

Asar tarkibida o‘ttiz ikkita g‘azal xususiyatlariga mos keluvchi g‘azal

xarakteridagi she'rlar mavjud. Ularning orasida to'liq mukammal g'azal deb hisoblashimiz mumkin bo'lgan g'azallar ko'pchilikni tashkil qiladi. Asarda ayrim matla'siz, hamda maqta'siz baytlar ham uchraydi. Ular qofiyalanish tizimi va vazn jihatdan g'azal talablariga javob bo'ladi. Bunday xususiyat aksariyat arabcha she'rlarda uchraydi. G'azallarda, asosan, payg'ambarlar madh etilgan bo'lib, Odam, Ibrohim, Mustafo, Yaqub, Lut, Jirjis, Ilyos, Yunus, Sulaymon, Dovud, Idris, Nuh, Xud, Solih, Is'hoq, Yusuf va boshqa bir qancha paygambarlar g'azallar g'oyasini tashkil qiladi. g'azallarda payg'ambarlarning qiyinchiliklari, kuchqudrati, xususiyatlari, ichki his-tuyg'ulari kuylangan.

“Qisasi Rabg‘uziy”da birinchi she'r – ilk marsiya o‘rin olgan. Bu marsiyani Odam Ato o‘g‘li Hobilning o‘limiga bag‘ishlab aytadi. “Qissai Qobil va Hobil”da tasvirlanishicha, Qobil bilan Iqlimo, Hobil bilan Abudo tug‘iladi. Iqlimo go‘zal. Abudo ko‘rksiz edi. Qobilga Abudo beriladigan bo‘ldi, u ko‘nmadi. Odam ularga qurbanlik qilishni, kimning qurbanligi qabul bo‘lsa, Iqlimo berilishini aytди. Hobilning qo‘yi qabul bo‘ldi. Qobil tosh bilan urib Hobilni o‘ldirdi. Qarg‘alarga qarab, Hobilni yerga qo‘ydi. Odam ko‘mish shundan qoldi. (30- 31- betlar). Asarda keltirilishicha, “Odam birla Havvo telim yig‘ladilar. Odam ta’ziyat tutub bu she'rni aydi. Yer yuzinda avval she'r ayg'an Odam erdi, ul she'r bu turur:

*Tag‘ayyarat ul biladu va man alayxa  
 Va vajhul arzi mug‘ayyirun  
 Masihu Faajabahu iblis la ‘natullohi alayxa  
 Tag‘ayyara kullu zi- lavnin va ta ‘min  
 Va qad bashashtil vajhil maluhu  
 Bi qatli Qobilin Hobilin axaxu  
 Fa yo asafa alal- vajxis –sabihi... ”*

“Qisasi Rabg‘uziy” turk badiiy nasrining ilk namunalaridan biri sifatida adabiyotimizda o‘ziga xos o‘ringa ega. Asar tarkibida yuqorida ta’kidlaganimizdek, nazmiy parchalarning ilk ko‘rinishlari ham asarning tarixiy badiiy-ilmiy qiymatini

oshiradi. Shunday janrlardan biri musammat janri asar qimmatini yanada oshiradi. Musammat janrining ba’zi turlari ilk bor ushbu asarda uchraydi. Musammatlar ko‘p misrali va ko‘p qofiyali band sistemasidan yuzaga keluvchi she’r shakllaridir. Yana ham aniqrog‘i, g‘azal tipida qofiyalanuvchi, har bir bandi 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10 misrali bandlardan tashkil topgan she’riy shakllar turkumiga musammat deyiladi. Ularning har biri bandlardagi misralar soniga qarab musallas (uchlik), murabba’ (to‘rtlik), muxammas (beshlik), musaddas (oltilik), musabba’ (yettilik), musamman (sakkizlik), mutassa’ yoki tasne’ (to‘qqizlik), muashshar yoki mashru’ (o’nlik) nomlari bilan ataladilar. Asar tarkibida musammat xarakteridagi she’rlarni jamlaganda, ularning quyidagi shakllari aniqlanadi:

### **Musallas (uchlik) xarakteridagi she’rlar – 2 ta.**

- A) Nosiruddin To‘qbug‘abek madhi – 11 band (33 misra)
- B) Ismoil Alayhis-salom Qisasi tarkibida – 3 band (9 misra)

“Qisasi Rabg‘uziy” asarida turkiy musallasning ilk ko‘rinishi uchraydi. Rabg‘uziydan oldin musammatning bu shaklida hech kim ijod etmagan. Musallas shaklida ijod qilish bir muncha qiyinchilik tug‘dirgan. Fikr to‘liq va izchil bo‘lishi qiyin bo‘lgan. Shuning uchun bu shakl Rabg‘uziydan keyin ham uchramaydi. Faqat XIX asrga kelib o‘zbek shoiralaridan Uvaysiy ijodida musallas shaklining go‘zal namunalarini ko‘rishimiz mumkin<sup>7</sup>. Rabg‘uziy ijodidagi musallas bu shaklining ilk mukammal ko‘rinishi hisoblanadi. Asardagi Nosriddun To‘qbug‘abek ta’rifi misolida buni ko‘rishimiz mumkin.

Xulosa o‘rnida shuni aytishim mumkinki, Rabg‘uziy o‘zbek adabiyotida murakkab kompozitsion qurilishga ega bo‘lgan dastlabki nasriy “Qisasi Rabg‘uziy” asarini yaratish bilan nafaqat qissaxon adib, balki ayrim she’riy janrlarning ilk muallifi hamdir. “Qisasi Rabg‘uziy”ning nasriy asar ekani xususiyatidan kelib chiqib Rabg‘uziy ijodi shu vaqtga qadar faqat nasriy mezonlar asosida o‘rganilgan. Uning she’riy iqtidori va poetik mahorati tadqiqotlarda doimo ikkinchi planda o‘rganib kelingan. Rabg‘uziy ijodini shoirlilik va she’riyat mezonlari asosida atroflicha o‘rganish vaqtı allaqachon yetib kelgan.

<sup>7</sup> R.Orzibekov. O‘zbek lirik she’riyati janrlari.-T.: Fan., 2006.-B.70-71.

***FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI***

1. Abdushukurov B. “Qisasi Rabg’uziy” leksikasi. Monografiya. – T.: Akademiya, 2008. – 192 b.
2. Mallaev N. O’zbek adabiyoti tarixi. Birinchi kitob. –T.: O’qituvchi, 1976. -664 b.
3. Mahmudov M. Ahli dil. – T.: G’.G’ulom nomidagn Adabiyot va san’at nashriyoti. 1997. - 312 b.
4. Muhiddinov M. Barhayot an’analar. – T.: Fan. 1987. - 79 b.
5. Muhammad payg’ambar alayhis-s-salom qissasi. Hadislar. – Toshkent.: Kamalak, 1991. - 304 bet.